

**NOQONUNYI QURILISHLARNI BARTARAF ETISHNING
HUQUQIY TARTIBI**

Rasulov Bekzod Boymuratovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti vazifasini

bajaruvchi, lawstroy83@mail.ru

Rasilova Zarina G'ulomjonovna

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Qurilish sohasi iqtisodiyot tarmoqlarining eng muhim sohalarida biri sifatida mamlakat rivoji va aholi farovonligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.*

Mazkur sohani huquqiy tartibga solish, ayniqsa, noqonuniy faoliyatning oldini olish va sohada qonun ustuvorligini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Bu borada noqonuniy qurilishni bartaraf etishning huquqiy mexanizmini takomillashtirish asosiy masalalardan biridir.

Ushbu maqolada noqonuniy qurilish, uning oqibatlari, noqonuniy qurilishlarni huquqiy tartibga solish tizimi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga oid masalalar tadqiq etildi.

Kalit so'zlar. *Qurilish, qurilish huquqi, noqonuniy qurilish, fuqorolik huquqi, qonun hujjatlari, normativ huquqiy hujjatlar, o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlar, noqonuniy qurilishni bartaraf etish, javobgarlik.*

Kirish.

So'ngi yillarda respublikamizda qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Barcha tadbirkorlik sub'ektlari biror-bir tarzda obyektlar qurilishidan manfaatdor. Qaysidir sub'ekt qurilish va qurilish-montaj ishlari bilan shug'ullansa, yana boshqasi o'zining tadbirkorlik faoliyati uchun bino va inshootlar quradi. Boshqa bir sub'ektlar qurilish materiallari, konstruksiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Shuningdek, jismoniy shaxslar yakka tartibdagi turarjoylarni qurishi aholi

turmush tarzining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Hukumatimiz tomonidan mazkur yoʻnalishdagi faoliyatni tartibga solish va shaffoflikni taʼminlash maqsadida raqamlashtirish jarayonini takomillashtirib bormoqda. Qurilishga yer ajratish vakolati hokimiyatlardan butunlay olindi, endilikda qurilishga roʻxsat berish haqidagi qarorlar hokimlar tomonidan chiqarilmaydi. Qurilish loyihasini ishlab chiqish va qurilishni amalga oshirish tender orqali loyihani yutib olish yoʻli bilan amalga oshirilmoqda. Qurilish va qurilish-montaj ishlarini amalga oshiruvchi pudratchi tashkilotlar onlayn reyting asosida toifalanib, tenderlarda ishtirok etish tizimi belgilandi. Yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksiga jamoatchilik nazoratini oʻrnatishga oid normalar kiritildi.

Ushbu islohotlarni amalga oshirish uchun sohani huquqiy tartibga solish, xususan roʻxsat berish tartib-taomillariga qatʼiy rioya qilinishi nihoyatda muhimdir. Sohaga oid qonunchilikda huquqiy tartibga solishning barcha mexanizmlari aniq belgilab qoʻyilgan boʻlishiga qaramay, qonunchilikka amal qilmaslik holatlari juda koʻp oʻchraydi.

Sohadagi asosiy muammolar qurilish ishlarini belgilangan tartibda roʻxsat olmasdan qurish, qurish loyihalarisiz qurilish ishlarini amalga oshirish, loyiha-smeta hujjatlaridan chetga chiqib qurilish ishlarini amalga oshirish, jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi turarjoyini yer ajratish tartibiga rioya qilmasdan qurish, oʻrnatilgan tartibda roʻxsat olib quriladigan yakka tartibdagi turarjoylarni shunday roʻxsatnomalarni olmasdan qurish holatlarida namoyon boʻladi.

Buning natijasida davlat va jamoat manfaatlariga, fuqarolar va yuridik shaxslarga mulkiy yoki boshqa tartibda zarar yetkaziladi. Xususan, noqonuniy qurilishni amalga oshirish natijasida yuz beradigan huquqiy oqibatlar uni amalga oshirgan shaxslarga ham zarar keltiradi.

Noqonuniy qurilishlar amalga oshirilgan aksariyat holatlarda korrupsiya alomatlari mavjud boʻladi yoki holat aniqlangandan soʻng manfaatdor shaxslar noqonuniy qurilishni korrupsiya yoʻli bilan qonuniylashtirishga oʻrinadi. Mana bu masala ham bugungi kunning muhim ahamiyatga ega boʻlgan muammolaridan biridir.

Masalaning yana bir dolzarb jihati – qurilishni huquqiy tartibga solishga oid tadqiqotlar mamlakatimiz olimlari tomonidan nihoyatda kam o'rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Olimlar tomonidan asosan texnik va iqtisodiy jihatlar tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimizda o'chrayotgan noqonuniy qurilishlar, ularning huquqiy oqibatlari, huquqiy tartibga solish choralari va mexanizmlari tahlil qilindi.

Tadqiqot maqsadi.

- Qurilishni huquqiy tartibga solishga oid masalalarni;
- O'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlardagi huquqbuzarliklarni bartaraf etishning huquqiy asoslarini;
- Noqonuniy qurilishlarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy ta'sir choralari va ularni qo'llash mexanizmlarini tadqiq qilishdan iborat

Tadqiqot usullari. Induksiya, deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi.

Noqonuniy qurilish tegishli qurilish ruxsatisiz qurilish ishlari (yoki uning natijasi) hisoblanadi. Nazorat qilinmagan qurilish maydonchalarida va tayyor binolarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik xavflardan tashqari, qo'riqxonalar kabi qo'riqxonalariga tajovuz qilganda, noqonuniy qurilish faoliyati katta ekologik qoidabuzarlik bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, noqonuniy qurilish, agar u yerni tortib olish yoki chet el hududlarida noqonuniy joylashish uchun qo'llanilsa, jiddiy siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.¹

Noqonuniy qurilish ko'p holatlarda urbanizatsiya, hududlarda aholi sonining haddan tashqari ko'payishi, boshpanasizlik va qashshoqlik kombinatsiyasining natijasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, noqonuniy qurilish faoliyati qimmatbaho ko'chmas mulk obyektlari bilan noqonuniy foyda olish maqsadida ularni ekspluatatsiya qilish holatlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Illegal_construction
www.tadqiqotlar.uz

Iordaniyalik olim Jamol Ahmad Alnsurning ta'kidlashicha noqonuniy qurilish amalga oshirilishi uchun muhim rol o'ynaydigan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud. Bu omillarga aholining o'sishi, qashshoqlik, daromad darajasi, shaharlardagi yer narxlari, moliya, shahar xizmatlari va madaniy yaqinlashuv kiradi.² deb ta'kidlaydi.

Rus olimi Yurova E.S.ning fikricha ruxsatsiz qurilishning oqibatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Qurilishgan obyektning tasarruf etilmaslik (sotish, hadya qilish, o'zgartirish, ro'yxatdan o'tish);
- Obyekt mulkka tegishli bo'lmagan yerda qurilgan bo'lsa jarimaga tortiladi;
- Shaharsozlik normalarini buzgan holda qurilgan ro'xsatnomasiz binolar buziladi. Mazkur holatda qurilish uchun mas'ul shaxs tomonidan buzilish xarajatlari qoplanadi.³

Dolgoplov D.V.ning fikricha, ro'xsatsiz mulkni buzish haqida qaror qabul qilinganda, egasi uni o'zi yoki o'z hisobidan buzishi kerak bo'ladi.⁴

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 212-moddasida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni shunday ta'riflaydi: "Qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi."⁵

Ushbu moddaning mazmunidan anglashilishicha, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar ikki turga bo'ladi:

- qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida qurilgan imoratlar;

² Jamol Ahmad Alnsur Illegal Housing in Jordan. Jordan Journal of Social Sciences, Volume 4, No. 3, 2011. P-341, <https://www.researchgate.net/publication/284088556>

³ Yurova E.S. // Vestnik zamonaviy tadqiqotlar. 2019 yil. No 2.9 (29). 63-65-betlar.

⁴ Dolgoplov D.V. Ruxsatsiz egalik huquqini tan olish qurilish // Fanlar xiyoboni. 2018. T. 6. No 11 (27). 645-649-betlar.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova), <https://lex.uz/docs/111189#149960>

- arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulklar.

Amaldagi qonunchilikda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash tartibi aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizamning 3-bandida "O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash:

qurilish maqsadlari uchun yer uchastkasiga bo'lgan huquqni belgilovchi hujjatlarning mavjudligini;

ikki qavatdan yuqori (sokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan baland va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarni, shuningdek 300 metr kubdan ko'p hajmdagi noturar bino va inshootlar loyiha hujjatlari ekspertizadan hamda qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalaridan ro'yxatdan o'tkazilganligini;

ikki qavatgacha, (sokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan past va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrgacha bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarni, shuningdek 300 metr kubdan kam hajmdagi noturar bino va inshootlar qurish uchun tuman qurilish bo'limi bilan kelishilgan loyihaning mavjudligini;

shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq qurilganligini tekshirish orqali amalga oshiriladi."⁶, deb mustahkamlanib qo'yilgan.

Mazkur imperativ talablardan chetga chiqish holatining aniqlanishi noqonuniy qurilish amalga oshirilganligini anglatadi.

Qonunchilikda noqonuniy qurilishlar amalga oshirilganligi uchun javobgarlik choralari belgilab qo'yilgan. Javobgarlik choralari belgilash orqali birinchidan, noqonuniy qurilish bartaraf etiladi; ikkinchidan, noqonuniy qurilish natijasida ko'rilgan zararlar bartaraf etiladi; uchinchidan, javobgarlikni belgilash orqali amaldagi qonunchilik ijrosi ta'minlanishiga erishiladi; to'rtinchidan, shaxslarda qonunchilikni hurmat qilish va qat'iy amal qilish ruhi shakllanadi.

⁶ O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizam. Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 5-iyuldagi 467-son qaroriga 1-ilova.

Lex.uz.docs/3558011/OIVDATE

www.tadqiqotlar.uz

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, ikki qavatdan yuqori (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan baland va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarni, shuningdek 300 metr kubdan ko'p hajmdagi noturar bino va inshootlar bo'yicha o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni mustaqil ravishda — qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari aniqlaydilar va bartaraf etish choralarini ko'radi.

Agarda, yakka tartibdagi uy-joylar ikki qavatgacha, (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan past va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrgacha bo'lgan, shuningdek 300 metr kubdan kam hajmdagi noturar bino va inshootlar bo'yicha o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmalari hamda tuman qurilish bo'limlari tomonidan hal etiladi.

O'zboshimchalik bilan qurilgan imorat aniqlanganda mazkur imoratni qurgan shaxsga ushbu qurilishning noqonuniyligi va uning huquqiy oqibatlari haqida batafsil tushuntirishlar berishi va imoratni o'n besh kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda bartaraf etish (buzib tashlash) to'g'risida dalolatnoma tuzishi lozim.

Qonunchilikka muvofiq, o'zboshimchalik bilan imoratni qurgan shaxs o'n besh kun muddat ichida uni o'z hisobidan bartaraf etishi shart.

O'zboshimchalik bilan imoratni qurgan shaxs tomonidan ushbu imoratni bartaraf etilishi (buzib tashlanishi)ni vakolatli organ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan hamkorlikda nazorat qiladi.

O'zboshimchalik bilan imoratni qurgan shaxs tomonidan imoratga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish to'g'risida sudga da'vo berilgan taqdirda da'vo berilgan kundan boshlab sudning yakuniy qarori qabul qilinishiga qadar ushbu imoratni bartaraf etilishi vaqtincha to'xtatib turiladi.⁷

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 212-moddasi

⁷ O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom. Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 5-iyuldagi 467-son qaroriga 1-ilova.
Lex.uz.docs/3558011/OIIVDATE
www.tadqiqotlar.uz

3-qismida⁸ ham o'zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida huquqlari buzilgan shaxsning yoki tegishli davlat organining da'vosi bilan bunday imorat sudning qaroriga binoan imoratni qurgan shaxs tomonidan yoki uning hisobidan buzib tashlanishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Mazkur talab imorat qurilgan yer uchastkasining mulkdori bo'lgan, unga umrbod meros sifatida egalik qilayotgan, doimiy egalik qilayotgan va foydalanayotgan shaxsning o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi sud tomonidan e'tirof etilishi holatlariga tadbiq etilmaydi.

Mamlakatimiz qonunchiligi sodir etilgan nojo'ya harakat oqibatlarini bartaraf etishdan tashqari huquqbuzarga nisbatan moddiy yoki ma'naviy jafo keltiruvchi jazo choralari qo'llashni nazarda tutadi. Bundan kuzlangan maqsad huquqbuzarni tarbiyalash, unda jazodan qo'rqish hissini paydo qilish hisoblanadi. Ushbu qoidalar noqonuniy qurilishlarni amalga oshirish holatlari uchun ham qo'llaniladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 99-moddasida obyektlarni davlat ekspertizasining loyiha-smeta hujjatlariga, shu jumladan ish hujjatlariga doir ijobiy xulosasisiz, shuningdek qurilish sohasida nazorat qilish va yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyalarining ruxsatnomasisiz qurish, shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurishga, rekonstruksiya qilishga va kapital ta'mirlashga taqiqlar (cheklovlar) belgilangan zonalarda shunday ishlarni amalga oshirish; fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olingan o'z hududiga tutash va tutash bo'lmagan yer maydonlarida qurilish ishlarini amalga oshirganlik uchun, 160-moddasida uylarni, xo'jalik va ro'zg'or binolarini qurish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.⁹

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining¹⁰ 229¹-moddasida yer

⁸ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova), <https://lex.uz/docs/111189#149960>

⁹ O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son) <https://lex.uz/docs/97664#200133>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 1-son, <https://www.lex.uz/acts/111453?ONDATE=17.08.2021%2000#edi5612885>).

uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo'lmagan holda ulardan foydalanish, Sug'oriladigan yer uchastkalarini ularda qurilish ishlarini amalga oshirgan holda o'zboshimchalik bilan egallab olish uchun, 229³-moddasida esa belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan huquqiy mexanizm takomillashtirib yaratilgan bo'lsa-da, huquqbuzarlik holatlari o'chrab turibdi.

Birinchi navbatta huquqiy ta'sir choralarni qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligi prinsiplariga rioya qilgan holda qo'llanishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Qonun hujjatlarining barcha talablari bajarilmas ekan, ustuvorlikni ham ta'minlab bo'lmaydi. Ish muomalasi odatlari bilan ish tutish fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu normalar asosan shartnomaviy munosabatlarga tegishli hisoblanadi. Shunday ekan, noqonuniy qurilishlar amalga oshirilganda aholining muhtoj qatlamlaridan tashqari toifalariga istisno holatlarni qo'llamaslik maqsadga muvofiq. Chunki moddiy holati yaxshi bo'lgan aholi toifalari tomonidan ko'p holatlarda mazkur qonun buzilishlariga yo'l qo'yiladi. Birgina jazoning muqarrarligi prinsipining to'la amal qilishi noqonuniy qurilishlar amalga oshirilishining juda katta miqdorda oldi olinishiga sabab bo'ladi.

Masalaning ikkinchi muhim jihati shundaki, noqonuniy qurilishlar oqibatlarini bartaraf etish – noqonuniy qurilishni buzish, zararni undirish yoki jazo qo'llash bilan hal etilishi fikrimizcha, barcha holatlar uchun eng to'g'ri yo'l emas. Eng avvalo, hududlarda noqonuniy qurilishlar boshlanish nuqtasida uning oldini olishga o'rinish maqsadga muvofiq. Buning uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va nazorat organlari faoliyati hamda shtatlar sonini qayta ko'rib chiqish lozim.

Xulosa va takliflar.

1. Qurilish ishlarining amaldagi qonunchilikka muvofiq tashkil etilishi va amalga oshirilishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va aholi farovonligining

oshishiga xizmat qiladi. Sohadagi faoliyatning raqamlashtirilishi va jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi qonuniylikni ta'minlashga yordam beradi.

2. Noqonuniy qurilishlarning amalga oshirilishi shunchaki huquqbuzarlik holati emas, balki bu holat shaxslardagi manfaatdorlik, ba'zida ehtiyojdan kelib chiqadi. Masalan, xususiy uy-joyi bo'lmagan oila yerga egalik huquqi bo'lmasa-da, bo'sh turgan joyga uy-joy qurishga ehtiyoji yuqori bo'ladi. Uning qonunchilik talablari buzilishi boshpanasiz yurishdan og'ir holat emas.

3. Noqonuniy qurilishlarning oldini olish uchun vakolatli organlar xodimlarining sonini va vakolat doirasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Chunki, hozirgi paytda vakolatli shaxslar hududlar bo'yicha biriktirilib, ushbu shaxslar hududlarni nazorat qilishdan ko'ra, ofis ishlari bilan ko'proq band bo'lishadi. Bundan tashqari mas'ul shaxslar qisqa muddatlarda mahalliy aholi bilan yaqin muloqotda bo'lishi oqibatida ta'sir choralari qo'llash imkoniyati pasayadi. Manfaatlarga to'qnashuvi holatlari sodir bo'ladi.

4. Noturarjoy binolarini qurish bo'yicha tegishli ro'xsat olmay turib amalga oshirganlik holatlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq. Shunda ularning hokimiyat va nazorat organlari bilan noqonuniy va norasmiy kelishuvlariga barham beriladi. Chunki bu holat tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki mulk huquqini buzish yohud tadbirkorlarning mulkiy huquqlariga putur yetkazish hisoblanmaydi.

5. Noqonuniy qurilishlarga u boshlanishidan oldin yoki boshlangan payt barham berilishi lozim. Bu mulk egalari moddiy zarar ko'rishining oldini oladi. Huquqbuzarlikni erta aniqlash uchun huquqiy mexanizmlarni mukammal ishlashini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz. Sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun jamoatchilik vakillarida manfaatdorlik hissini oshirish kerak.

Иқтибослар/Сноски/Референсес:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova), <https://lex.uz/docs/111189#149960>

2. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son) <https://lex.uz/docs/97664#200133>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 1-son, <https://www.lex.uz/acts/111453?ONDATE=17.08.2021%2000#edi5612885>.)
4. O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni aniqlash hamda bartaraf etish (buzib tashlash)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom. Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 5-iyuldagi 467-son qaroriga 1-ilova. [Lex.uz/docs/3558011/OIIVDATE](https://lex.uz/docs/3558011/OIIVDATE)
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Illegal_construction
6. Jamol Ahmad Alnsur Illegal Housing in Jordan. Jordan Journal of Social Sciences, Volume 4, No. 3, 2011. P-341, <https://www.researchgate.net/publication/284088556>
7. Yurova E.S. // Vestnik zamonaviy tadqiqotlar. 2019 yil. No 2.9 (29). 63-65-betlar.
8. Dolgopolov D.V. Ruxsatsiz egalik huquqini tan olish qurilish // Fanlar xiyoboni. 2018. T. 6. No 11 (27). 645-649-betlar.